

***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***  
**“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGIYASI MAMLAKAT ILM-FAN  
TARAQQIYOTINING ASOSIY MEZONIGA AYLANMOQDA**

**MAMATRAIMOV KOMIL MAMATMURODO‘G‘LI**  
**TERMIZ MUHANDISLIK -TEXNOLOGIYA INSTITUTI TARIX FANI**  
**O‘QITUVCHISI**

**ANNOTATSIYA:** *Maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida “O‘zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirishning asosiy jihatlari, mamlakatimizda fan va jamiyat rivojining tadrijiy va uzviy rivojlanishi, yoshlar siyosati borasida yaqin davr oralig‘ida mamlakatimizda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan asosiy va ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *“O‘zbekiston-2030” strategiyasi, Yangi O‘zbekistonda ilm-ma’rifat, barqaror rivojlanish.*

**KIRISH.**

O‘tgan 2023-yilda mamlakatimiz aholisi ikki tarixiy siyosiy –ijtimoiy jarayonning bevosita kuzatuvchisi, shuningdek ishtirokchisiga ham aylandi. Yuqorida ta’kidlangan eng asosiy ijtimoiy-demokratik voqealardan biri 2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumining o‘tkazilishi natijasida yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bo‘lsa, ikkinchi siyosiy jarayon 2023-yil 9-iyulda muddatidan oldin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining o‘tkazilishi bo‘ldi. Mazkur amalga oshirilgan jarayonlar o‘z navbatida xalqimizning birdamligini, jamiyatimiz siyosiy yetuklik darajasi ortib borayotganligini, Yangi O‘zbekistonni barpo etish va yanada taraqqiy ettirish maqsadida ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning O‘zbekiston xalqi tomonidan ishonch bilan to‘liq qo‘llab-quvvatlayotgani yana bir bor amaliy tasdig‘ini topdi. Xususan, davlatimiz yangilangan konstitutsiyaning zamirida umummilliy taraqqiyot rivojining yo‘nalishlarini takomillashtirish va samarali rivojlantirish, amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi darajaga olib

chiqish davr talabiga aylanmoqda.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

2023-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi yuqorida qayd etib o‘tilgan asosiy va eng muhim talablarga javob bera oladigan dastur, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, milliy istiqbolimizning ertangi rivojini ta’minlashga xizmat qiladigan, yangi zamon, yangi davr bosqichini o‘zida mujassam etgan milliy g‘oyamizdir. Qabul qilingan mazkur strategiya mamlakatimiz xalqining erkinlik va farovon hayoti ta’minlangan, Yangi O‘zbekistonni bunyod etish bo‘yicha xohish va istaklarini amalga oshirish, O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroga jamiyatda o‘z salohiyati, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, har jihatdan bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash hamda xalqaro ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylantirish, davlatning kuchli va barqaror iqtisodiyotni shakllantirish, adolat ustuvor bo‘lgan, qonun ustuvorligi ta’minlangan, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatlashga xizmat qiladi.

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasini ko‘pchilik tahlilchilar Xalq strategiyasi deb atamoqda. Beshta yo‘nalish, yuzta asosiy maqsadni birlashtirgan mazkur normativ-huquqiy hujjatda mamlakatimiz kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim tizimi islohotlariga asosiy e’tibor qaratilgan. Zotan, jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy ta’kidlaganlaridek, «Ilm dunyoning izzati. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur». Ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat insonni kamolotga yetaklovchi, unga najot, kuch beruvchi buyuk ne’mat ekani, bugungi tezkor va shiddatli dunyoda yanada yaqqolroq namoyon bo‘lyapti.

Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish, barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta’minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash va xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish hamda «xavfsiz va tinchliksevar davlat» tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

maqsadida ishlab chiqilgan hujjatda 2030-yilgacha bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olish qat'iy belgilab qo'yildi. 100 foiz maktabgacha ta'lim tashkilotlari toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlanadi. O'lis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslar yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar «til egalari» bo'lgan xorijiy mutaxassislar jalb etiladi, barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarlariga o'rgatish kurslari joriy etilib, pedagoglarning o'rtacha ish haqi 2 barobarga oshiriladi, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi esa 50 foizga yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi PF-37-son Farmonida 2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi qarori bilan «Yoshlar balansi» asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga biriktirilishi belgilandi. Mazkur rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o'zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko'maklashib borishi lozimligi belgilandi. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida, shuningdek, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, milliy qadriyatlar va ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo'yicha ham yangicha yondashuvlar joriy etilishi belgilangan. Kitobxonlar sonini 5 millionga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilgani esa ushbu hujjatda tarbiya va ta'lim birlamchi o'ringa ko'tarilganini anglatadi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

Boshqacha aytganda, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan maqsad-vazifalar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘ziga xos “yo‘l xaritasi” vazifasini o‘taydi. Mazkur strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning eng ustuvor vazifasidir. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko‘rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu dasturulamal hujjatning ijrosidan yurtimizdagi har bir insonga – qulay imkoniyat, muayyan yengilliklar, moddiy va ma’naviy manfaat yetib, har qaysi oila va xonadon obodlik, to‘kinlik, fayz va baraka topadi.

### **XULOSA**

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi»da esa Nodavlat va respublikada faoliyat olib borayotgan xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarida davlat grantlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash o‘rnini faqat kunduzgi ta’lim shaklida 1200 taga yetkazish (20% ga oshirish) yuzasidan takliflarni shakllantirish belgilandi. Shuningdek, davlat dasturida, bakalavriatdagi ta’lim tizimini to‘liq qayta ko‘rib chiqish va mazmun jihatidan yaqin bo‘lgan yo‘nalishlar birlashtirilib, zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish, buxgalteriya, logistika, marketing, IT, dizayn, turizm kabi bakalavriat yo‘nalishlarida o‘qish muddatini qayta ko‘rib chiqish, bio-muhandislik, nano-texnologiya, IT injiniring, urbanistika, yashil energetika kabi istiqbolli yangi mutaxassisliklarga o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, Muhandislik-texnik sohasidagi 33 ta davlat oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini kompleks tahlil qilish, fundamental ilmiy-tadqiqot loyihalariga yetakchi xorijiy ilmiy tashkilot, ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalaridan hamrahbar tayinlash kabilar rejalashtirilmoqda. Mazkur strategik ahamiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlar quruq raqamlardan yoki asossiz dasturlardan iborat emas. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan har bir yo‘nalish va vazifalarning moliyaviy manbalari hal etilib, shu kunlarda ularning ijrosi ta’minlanishi aniq belgilangan. Belgilangan vazifalar yanada samarali bo‘lishi uchun esa Davlat rahbari tomonidan

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

ta'kidlanganidek, vaqtni – imkoniyatga, imkoniyatni – yutuqqa, yutuqni taraqqiyot poydevoriga aylantirishimiz kerak. Zero, yagona maqsadimiz Vatanimizni kuchli huquqiy davlat va farovon fuqarolik jamiyatiga aylantirishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentyabrdagi 158-sonli "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.
2. угли Маматраимов, К. М. (2024). ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ «ИСТОРИИ ПОЛИТИКО-ПРАВОВЫХ ПРОЦЕССОВ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА» У СТУДЕНТОВ НЕСПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. *GOLDEN BRAIN*, 2(11), 64-70.
3. Mamatraimov, K. (2023). OSHIQLIK, OSHKORALIK VA KO'P TOMONLAMA HAMKORLIK O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(12), 391-396.
4. Mamatraimov, K. M. (2023). O'ZBEKISTON VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI: TARAQQIYOT YO'LIDAGI HAMKORLIK. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 87-90.
5. Хакимов, Ф. А. (2023). ПРИНЦИПЫ ПРИЗНАНИЯ, ОЦЕНКИ И УЧЕТА ДОЛГОСРОЧНЫЕ АКТИВОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 669-676.
6. Mamatraimov, K. M. (2024). SUSTAINABLE DEVELOPMENT STRATEGIES IN POLITICAL AND LEGAL PROCESSES OF UZBEKISTAN ARE SERVING THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*.
7. Отамуродова, Д. А. (2024). Ер усти ва ер ости сизот сувларининг агроэкоиктисодий муаммолари (Сурхондарё вилояти мисолида). *Miasto Przyszłości*, 48, 751-754.